

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.E.Madaliyev</b>	
Talabalarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	115
<b>N.R.Mansurova</b>	
Zamonaviy oliy ta'limda musiqiy aksiologik yondashuvdan foydalanishning pedagogik asoslari .....	120
<b>M.M.Maxamadjonova</b>	
Oliy ta'lim talabalarida mediasavodxonlikni shakllantirishning pedagogik ahamiyati.....	129
<b>I.I.Soliyev</b>	
Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish metodologiyasi .....	132
<b>D.D.Mirzaakbarov</b>	
Koreys tilini mustaqil o'rganishdagi muammolar va ularni bartaraf qilishda zamonaviy texnikaning ro'li .....	136
<b>A.Y.Axmedov</b>	
Kommunikativ kompetensiya bo'lajak psixologlarning kasbiy rivojlanishining hal qiluvchi omili sifatida .....	141
<b>N.B.Dusimbetova</b>	
Jurnalistika yo'nalishi talabalari kompetensiyasi: ko'nikma va bilimlarning ahamiyati .....	146
<b>S.T.Aldasheva</b>	
Mediata'lim vositasida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati .....	151
<b>A.T.Nazarov</b>	
Yangi O'zbekistonda bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish holati tahlili .....	154
<b>U.K.Rahmonov</b>	
Bo'lajak tarbiyachilarning estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik bosqichlari va komponentlari.....	158
<b>A.R.Saydullayeva</b>	
Bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mohiyati va psixologik asoslari.....	162
<b>U.Sh.Abduraximova</b>	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli.	168
<b>S.A.Mahmudova</b>	
Bo'lajak pedagoglarning ijtimoiy-kreativ kompetentlik darajasini aniqlashda psixodiagnostik yondashuv va tamoyillardan foydalanish.....	172
<b>J.O.Amirov</b>	
Yosh futbolchilarni koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	176
<b>G.T.Xusanova</b>	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlar ustida ishlash usullari.....	180
<b>X.O.Pardayeva</b>	
Kredit- modul ta'lim tizimi jahon tajribasi .....	184
<b>M.Barakayev, M.Nasritdinov</b>	
Ta'limni raqamlashtirish shartitida o'quvchi-talabalarni noxiziq fikrlashga o'rgatish imkoniyatlari.....	191
<b>Sh.O.Aripov</b>	
O'g'il bola tarbiyasi va oilaviy munosabatlarni rivojlanish tendensiyalarining tarixi.....	195
<b>M.M.Mirzakarimova, M.D.Uzoqjonova</b>	
Ekologik ta'lim-tarbiyani takomillashtirish omillari .....	200
<b>D.T.Nishonova</b>	
Jismoniy tarbiya tizimida sog'lom turmush tarzini shakllantirish yo'llari.....	205
<b>S.T.Xakimov, Sh.Xudoyqulov</b>	
Gimnastika maxsus mashqlari orqali o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlanishini kompleks nazorat qilish.....	213
<b>X.X.Abdurahmov</b>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida jismoniy sifatlarini rivojlantirish.....	218
<b>M.M.Turg'unov</b>	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi.....	223



UO‘K: 371.3+372.61+413.143

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ZID MA‘NOLI SO‘ZLAR USTIDA ISHLASH USULLARI****METHODS OF WORKING ON WORDS WITH OPPOSITE MEANING IN PRIMARY CLASSES****МЕТОДЫ РАБОТЫ НАД СЛОВАМИ ПРОТИВОПОЛОЖНОГО ЗНАЧЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ****Xusanova Gulruxsor To‘lqin qizi** 

Farg‘ona davlat universiteti boshlang‘ich ta‘lim uslubiyoti kafedrasida o‘qituvchisi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongida ziddiyat tushunchalarini shakllantirish bo‘yicha topshiriqlar bazasi va elektron lug‘at yaratish va uni o‘quvchilarga ta‘siri yoritib berilgan. Zamonaviy, yangi avlod o‘quv lug‘atlarini tuzish hamda ularning elektron shakllarini va so‘halar bo‘yicha atamalar lug‘atini yaratish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘zbek tilini o‘rgatishni takomillashtirish ko‘zda tutilgan.

**Аннотация**

В данной статье описано создание базы данных задач и электронного словаря для формирования понятий конфликта в сознании младших школьников и его влияние на учащихся. Планируется усовершенствовать преподавание узбекского языка учащимся начальных классов путем создания современных учебных словарей нового поколения и их электронных форм, а также словаря терминов по отраслям.

**Abstract**

This article describes the creation of a database of tasks and an electronic dictionary for the formation of concepts of conflict in the minds of elementary school students and its impact on students. It is planned to improve the teaching of the Uzbek language to elementary school students by creating modern, new-generation educational dictionaries and their electronic forms and a dictionary of terms by fields.

**Kalit so‘zlar:** Lug‘at, zid ma‘noli so‘zlar, elektron lug‘at, lug‘aviy birliklar, o‘quv lug‘atlari.

**Ключевые слова:** Словарь, антонимы, электронный словарь, словарные единицы, учебные словари.

**Key words:** Dictionary, antonyms, electronic dictionary, vocabulary units, educational dictionaries.

**KIRISH**

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mamlakat taraqqiyotidagi har bir davr til ta‘limi va tilshunoslik zimmasiga muayyan ijtimoiy vazifalarni yuklaydi. Har bir tilning lug‘at zahirasi taraqqiyoti yangi lug‘aviy birliklarning kirib kelishi, so‘zlarning yangi ma‘no kasb etishi, shu asosda ma‘nodoshlikning yangi munosabatlari paydo bo‘lishi yoki o‘zaro ziddiyatdagi so‘zlarning yangi tushunchalar hisobiga boyishi, so‘z ma‘nolarining kengayishi kabi lingvistik hodisalar bilan xarakterlanadi. So‘nggi yillarda o‘zbek leksikografiyasi ham jahon lug‘atchiligining barcha yutuqlarini o‘zlashtirib bormoqda. Dunyoning qator rivojlangan mamlakatlarida o‘tgan asrning boshlaridayoq til o‘qitish va o‘rgatishning samaradorligini oshirishning muhim vositasi sifatida tan olingan va hukumat tomonidan diqqat markazda turgan o‘quv lug‘atchiligining educational lexicography (ta‘limiy leksikografiya), school dictionary (maktab lug‘ati), childrens dictionary (bolalar lug‘ati), learning dictionary (o‘quv lug‘ati), educational dictionary (ta‘limiy lug‘at), kindergarten dictionary (bog‘cha lug‘ati), dictionary for kids (kichik bolalar uchun lug‘at), kindle edition (elektron nashrlar) kabi xalqaro ilmiy terminlari va janrlari bilan foydalanuvchilarga yaqindan tanish bo‘lgan elektron-o‘quv lug‘atchiligi sohasining bugungi istiqboli ma‘lum ma‘noda o‘zbek leksikografiyasining ham diqqat markazida turibdi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

V.Z.Dem‘yankov ushbu ilmiy yo‘nalishga quyidagicha ta‘rif beradi: kognitivizm “insonni axborotni ishlash tizimi sifatida o‘rganish kerak bo‘lgan qarashdir va inson hatti-harakati insonning ichki holatlari nuqtayi nazaridan tavsiflanishi va tushuntirishi kerak” [V.Z.Dem‘yankov, 1994,17.]

## PEDAGOGIKA

O'quvchilar bilish jarayonini rivojlantirish, va so'z boyligini oshirish uchun elektron lug'atlardan foydalanish ahamiyatlidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini nutqini va bilish jarayonini o'stirish oldimizda turgan asosiy vazifa hisoblanadi. Shu boisdan ham kognitiv ilmiy yo'nalish tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bunda asosiy e'tibor inson tomonidan bilim olish muammosiga va "inson qanday bilim turlariga va qanday shaklga ega ekanligi, bilim uning bilimida qanday nomoyon bo'lishi" kabi savollarga qaratilgan. Inson bilimga qanday erishadi va undan qanday foydalanadi". [KSKT,1996,58.] Ushbu maqolada o'quvchilar ongida ziddiyat tushunchalarini shakllantirish maqsadida o'quv topshiriqlari, tushunchalar tahlili, mantiqiy toshiriqlardan foydalanildi.

**NATIJALAR**

2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasida milliy tilning o'quv leksikografiya tarmog'ini rivojlantirish, zamonaviy, yangi avlod o'quv lug'atlarini tuzish hamda ularning elektron shakllarini va sohalar bo'yicha atamalar lug'atini yaratish orqali sohalar bo'yicha milliy terminologik tizimni va boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'zbek tilini o'rgatishni takomillashtirish kabi qat'iy vazifalar qo'yildi. Umuman so'nggi yillarda o'zbek tilida o'quv lug'atlarini yaratish bo'yicha olib borilayotgan ishlar juda ko'p bo'lsa-da, ta'lim kompleksi tarkibiga kiruvchi o'quv jarayoni uchun maksimal moslashgan foydalanuvchilarning yoshi chegaralangan o'quv lug'atlari tizimining shakllanmagani, mavjud lug'atlardagi qator kamchiliklarning borligi yaratilayotgan elektron o'quv lug'atlarining mavjud emasligini ko'rsatadi. Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikr yuritish ko'nikmalari hamda kommunikativ kompetentlikni hosil qilishning asosiy omillaridan biri o'quvchilarda ta'lim jarayonida va darsdan tashqari mustaqil ta'lim olish jarayonida o'quv lug'atlaridan foydalana olish ko'nikmasini shakllantirish zaruriyati mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida ziddiyat tushunchasini shakllantirishda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda sinflar kesimida bosqichma-bosqich murakkablashgan holda topshiriqlar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Quyida boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida zid ma'noli so'zlarni shakllantirishga oid topshiriqlar berilgan. 1-sinf o'quvchilariga rasmlar orqali ziddiyatni tushuntirish oson va sifatli natija asosi hisoblanadi. Sinflar kesimida topshiriqlarimiz ham murakkablashib boradi. Quyida topshiriqlardan namunalar berilgan.

**Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni topib yozing.****YAXSHI**

.....

**DO'ST**

.....

**SOVUQ**

.....

**MEHNATKASH**

.....

**QORA**

.....

**BALAND**

.....

**XURSAND**

kabi. Shuningdek, zamonaviy shaxsning muhim ko'rsaktichi hisoblangan kommunikativ kompetentlikni o'stiruvchi mazkur antropotsentrik lug'atlar, ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun zamonaviy sinonimlar, antonimlar va ko'p ma'noli so'zlarning elektron lug'ati mavjud emas. Ishlab chiqilayotgan zid ma'noli so'zlar lug'atida so'zlar izohi, zid ma'noli so'zlar ishtirokida gap va zid ma'noni tushuntirib bilimlarni mustahkamlash uchun quyidagicha mashqlar ishlab chiqilgan.

**Baland-past**

**Baland**-pastdan yuqoriga tomon o'lchami, bo'yi uzun. Baland minora.

**Past**-pastdan yuqoriga tomon o'lchami, bo'yi uncha baland bo'lmagan. Past devor. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar yordamida baland binolar qurilmoqda. O'zbekistonda ham baland, osmono'par binolar soni ortmoqda.



Ko'k maysalar nish urib,  
Yerning **baland-pastida**,  
Go'zal bahor serkillab0

Yetilar yer ostida ("Ayamajiz" Qudrat Hikmat)

**She'rdagi tushib qolgan so'zlarni o'rinli qo'ying toping!**

Qaysi yerning nonlari

Kiritadi jonlarni?

Minoralari (past, baland)

Bu sayqali Samarqand. ("Bu – bizning O'zbekiston" Kavsar Turdiyeva)

**Gapdagi zid ma'moli so'zlarni toping va tagiga chizing.**

Qadimda Samarqandni muhofaza qilish maqsadida baland devor bilan o'rab chiqishgan.

Ushbu topshiriqli lug'atlar o'quvchilarning so'z boyligini oshiradi, tafakkurini o'stiradi.

**Issiq**- haroratning me'yorida baland, yuqori bo'lishi.

**Sovuq**- haroratning me'yorida past bo'lishi.

Yer yuzida shunday joylar borki, quyosh nuri yetib bormaydi shu sababli juda sovuq. Cho'lli hududlar qurg'oqchil va havosi issiq bo'lgani sababli o'simliklar juda kam o'sadi.



**Gapdagi zid ma'noga ega so'zlarni ayting.**

Qishda kunlar **sovuq**, yozda esa **issiq** bo'ladi.

**Qarama-qarshi so'zlarni ma'nosiga qarab tanlang.**

Keldi ko'klam kabi soz,

Bizlar sevgan ... (issiq, sovuq) yoz.

Ekin o'sdi yerlarda,

Bug'doy pishdi qirlarda. ("Yoz" Shukur Sa'dulla)

**Zid ma'noli so'zlarni to'g'ri tanlang.**

Birdan tushib qoldi ... ,(issiq, sovuq)

Itning ko'rpa-yostig'i yo'q.

Na uyi bor, na boshpana

Hech kimi yo'q – yakka yana. ("Laqma it") Shukur Sa'dulla

Mavjud lug'atlarning aksariyati o'zbek lug'atchiligida an'anaviy lug'atlar bo'lib, ular yosh jihatidan chegaralanmagan. Bu tipdagi lug'atlar birinchidan aynan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun deb ko'rsatilib, foydalanuvchilar aniq chegaralanmagan va so'zlik qamrovi o'quv jarayoni ehtiyojidan kelib chiqmagan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun zid ma'noga ega so'zlarning (qo'shimcha illyustratsiyalar, savol, tizimli grammatik topshiriqlar, she'riy parchalar va lug'at bilan ishlash mashqlaridan iborat bo'lgan) elektron lug'atini ishlab chiqish ham tadqiqotimizning asosi hisoblanadi.

## PEDAGOGIKA

Elektron o'quv lug'atlari bir necha jihati bilan zamonaviy boshqa lug'atlardan farq qiladi: elementar – joy egallamasligi, transportirovkaning qulayligi(virtualligi), qo'llashda qulayligi (yirtilmaydi, eskirmaydi, ma'lumot topish tezkor...) kabilardan tashqari, texnik xarakteristikasiga ko'ra ham ustunlik qiladi: elektron o'quv lug'atlarda nafaqat matn va grafik illyustratsiyalar, balki audio, video, animatsiya... kabilar ham ishtirok eta oladi. Bu esa izohlar mazmunini boyitadi, ob'ekt tavsifini yanada tushunarli qiladi. Foydalanuvchi lug'atdan iloji boricha kerakli ma'lumotlarni lokalizatsiya qilishni xohlaydi. Lug'at javobining o'ziga xos xususiyati shundaki, u so'z yoki ibora haqida juda xilma-xil ma'lumot beradi, nafaqat tarjima o'yinlari, balki bir nechta mumkin bo'lgan asosli alternatalardan faol tanlovni o'z ichiga oladi. "Qog'oz" lug'atlari muqarrar ravishda eskirgan. Bu, ayniqsa, so'zlashuv so'zlari uchun to'g'ri keladi. Elektron lug'atlar kabi ommaviy dasturiy mahsulotlar tez-tez versiyalarining o'zgarishi va minglab foydalanuvchilarning doimiy mulohazalari bilan ajralib turadi. Shuning uchun elektron leksikografiya haqiqiy leksikografiya hisoblanadi.

**XULOSA**

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, elektron lug'atlarni yaratish:

- amaliy leksikografiyaning istiqbolli, faol rivojlanayotgan sohasidir:
- elektron lug'at qidirish vaqtini qisqartiradi, cheklanmagan hajmdagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, bir vaqtning o'zida qidiruvni nafaqat lug'at yozuvining nomi bilan, balki butun lug'atlarning katta hajmida ham amalga oshiradi; bu qog'oz ko'rinishida haqiqiy emas, so'zlarni va lug'at yozuvlarini o'qiydi, ulardan foydalanish oson.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Novikov L.A. Antonimiya v rusском yazike. — M.: Nauka, 1973.- 432 s.
2. Kratkiy slovar' kognitivnix terminov / Pod red. Ye.S. Kubryakovoy. - M., 1996.-245 b.
3. Podlasiy I.P. Pedagogika 100 voprosov – 100 otvetov. M.: VLADOS, 2003. -31 s.
4. Ufimseva A.A. Leksicheskoe znachenie: [Prinsip semiologicheskogo opisaniya leksiki]. - M., 1986. - 239 s.
5. Хусанова, Г. (2022). Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar so'z boyligini oshirishning pedagogik-psixologik asoslari. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(4), 232-235.